



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA BOLALAR ADABIYOTI FANI ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIM VA O'QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQUISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

M.E.Axmedova

TAFU p.f.d.professori

M.E.Axmedova¹

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi G.K.Raximova

orcid: 0000-0003-0038-1408

e-mail: maloxata959@gmail.com

Raximova G.K.¹

orcid: 0000-0001-6918-589X

e-mail: gulbahorrahimova17@gmail.com

¹Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, 100149, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: e-mail: maloxata959@gmail.com

²O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand 141500, O'zbekiston Respublikasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14913031>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bolalar adabiyoti fani asosida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish mexanizmi. Anvar Obidjon she'riyatidagi bolalar obrazi, ularning o'ziga xos xarakter, xususiyatlari tahlil qilingan. Bolalarning rang-barang ruhiy olami hamda ramziy detallarning ma'nolari yoritib berilgan va undan metodik, didaktik, pedagogik usullarni yaratishda foydalanish imkoniyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, beg'uborlik, bolalar shoiri, go'dak yig'isi, bolalar dunyosi.

Kirish.

Jahonda bolalar adabiyot fanini o'qitish metodikasi pedagogika va adabiyotshunoslik fanlaridan erishgan yutuqlardan foydalanadi. Bolalar adabiyoti inson uchun dunyoni anglash vositasi hisoblanadi, bolalar tafakkurida olamning lisoniy manzarasi badiiy adabiyot vositalari orqali ham shakllanadi. Barcha xalqlar milliylikni asrashning bosh mezoni sifatida adabiyotni angelaydi va buni ta'lim orqali amalga oshirayotganda badiiy adabiyotni mutolaasini milliy qadriyatga aylantirish, ulug'lash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. XXI asrning buyuk fojiasi shundaki, insonniyat qadriytlardan uzoqlashmoqda deydi BMT bosh kotibi Antoniu Guterrish. Bugungi kunda bolalar adabiyoti fanini o'qitishning yangi usullarini kashf qilish, amaliyotga uzluksiz joriy qilib borish muhim masalalardan. Xalqaro o'qitish metodikasida andoza sifatida qabul qilinayotgan yutuqlardan aksar mamlakat samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, xalqaro adabiy ta'lim metodikasida bolalar adabiyotini anglash va mushohada qilish ko'nikmani rivojlantirish, talabalarni turli nutqiy vaziyatga tayyorlash asosiy masalalardan, uni amalga oshirish, asosan, mustaqil va o'quv topshiriqlarining sifati va mazmuniga bog'liq. Ta'lim mazmuni mustaqil va o'quv topshiriqlari orqali yuzaga chiqariladi. Shu bois bolalar adabiyoti fanini o'qitish metodikasida talaba uchun mustaqil va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish dolzarb. Dunyoda rivojlangan davlatlarni bolalar adabiyoti fanini o'qitishga doir ilmiy-metodik adabiyotlarda adabiy ta'lim, asosan, berilgan bolalar adabiyotidagi matn ustida ishlash, turli uslubda taqdim qilingan ma'lumot o'qib tushunish va munosabat bildirish uchun tayyorlashga yo'naltiriladi. Har bir dars mashg'ulotida taqdim qilingan ma'lumotning talaba uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim, savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro til ta'limi tajribasida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari belgilangan muayyan mezonlar asosida takomillashtiriladi, shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida bolalar adabiyotini boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. Fanlararo integratsiyani, albatta, mustaqil topshiriq, savol va topshiriqlar ta'minlab beradi, shu nuqtai nazardan bolalar



adabiyoti fani o'qitish metodikasining asosiy muammosi sifatida pragmatik mustaqil va o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish qayd qilinishi lozim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishda bolalar adabiyotida badiiy asar mazmuni teran anglashga yordam beruvchi mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish xususan, bolalar adabiyotining estetik mohiyatini his etish, ma'naviy qadriyatlarni kashf qilish, badiiy didini yuksaltirish, matnni chuqur idrok etishga ko'maklashish maqsadi ustuvor bo'lgan ta'lim paradigmasida zamonaviy adabiy ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq dolzarb muammolar alohida o'rin tutadi. Bunda bolalar adabiyoti fannining o'tmishdagi va bugungi istiqloq davri metodikasi tajribalari hisobga olinadi. Bolalar adabiyot metodikasi tarixida uni fan sifatida o'qitishga dastlabki ilmiy urinishlar. O'zbek bolalar adiblari (X.To'xtaboyev haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi X. To'xtaboevning asarlari tojik, qirg'iz, turkman, ozarbayjon, arman, rus, ukrain, belorus, moldovan, eston, latish, litva, fin, bolgar, venger, nemis, chex, italyan – jami 24 tilga tarjima bo'lgan. "Sariqni devni minib" asarining Jahon tillariga tarjima qilinishiga sabab, 1971 yili Italiyaning Rim shahrida o'tgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida) Janni Rodarining shu asar haqida aytgan iliq gaplari bo'lgan edi. G'. Gulomning nasriy asarlari o'zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida. Q. Muxammadiy she'riyatida tabiatga munosabat, Shukur Sa'dulla va Hakim Nazirning ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, Po'lat Mo'min ijodida odob-axloq mavzusi. Quadrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari, Xudoyberdi To'xtaboyev va Farxod Musajonning bolalarga bag'ishlangan hikoyalarda bolalar obrazi ifodasi, Mirkarim Osim bolalarning tarixnavis adibi. Adib qissalarida tarixiy shaxslar obrazi ifodasi, Nosir Fozilov ijodining o'ziga xos qirralari, Safar Barnoyevning bolalar uchun yozgan hikoyalari, Anvar Obidjon - bolalar shoiri. Hamza Imonberdiyev she'rlarida obrazlar olamining yoritilishi, Istiqloq davri bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. G'.G'ulom., H.Nazir., Z. Diyor., S. Jo'ra., hamda Abduraxmon Akbarning qofiyali nasr(saj) shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi. O'zbek bolalar adabiyoti tadqiqotchilari, Qambar Ota, Kavsar Turdiyeva, Dilshod Rajab, Abdusaid Kuchimovlarning bolalar bop yozgan asarlari, ijodi hamda ijodini o'rganish, o'zbek bolalar adabiyotini o'rganish muammolari atroflicha yoritilgan, keyinchalik M.Jumaboyev, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov K.Turdiyeva, L.Xalilov, T.Adashboyev, A.Akbar, G.R.Raximova, Mirqosimova M.M., Husanboeva Q.P. Niyozmetova R.X. Dolimov U. Keldiyorov R.A. Abduvalitov Ye.B. Qodirov V. Yusupov Q.A. Yuldasheva N.A., Tursunova M. kabi metodist olimlar tajribalarida yangilangan pedagogik tafakkur, mustaqil ishlarni tashkil etish, badiiy asar tahliliga tizimli yondashuv, mustaqil fikrlash va bu bolalar adabiyoti ta'lim jarayonida muammoli ta'limning o'rni, madrasalar va jadidchilik ta'limoti, mumtoz namunalarni o'qitish, xalq og'zaki ijodini qiyosiy o'rganish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bolalar adabiyoti darslarini samarali tashkil etish kabi muammolar doirasida tadqiq etilgan. MDH davlatlari olimlari: A. S. Pushkin, N. A. Nekrasov, N. Tolstoy, K. I. Chukovskiy, Samil Marshak bolalar uchun yozgan asarlari Jahon bolalar adabiyotiga yuz tutdi.bular keyinchalik G.I.Belenkiy, F.I.Volkov, V.A.Domanskiy, Ye.N.Kolokolsev, A.S.Kurilov, Yu.M.Lotman, T.F.Sigayeva, Z.S.Smelkovalar tomonidan, asosan, adabiyot o'qitishda uning san'at asari sifatidagi xususiyatlariga e'tibor qaratilsa, V.Kan-Kalik, V.I.Xazan, O.Yu.Bogdanova, V.G.Maransman, N.D.Moldavskaya, S.Kagan, A.B.Yesin, D.A.Mazilina, I.V.Rijkova, B.M.Eyksenbaumlardan tomonidan adabiyot o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, talabalarda adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan. Xorijiy adabiyotlarni o'rganish ayniqsa Fransiya bolalar adabiyoti. Sharl Perron va Aka-uka Grimmlar. Nemis va Angliya bolalar adabiyoti va uning ayrim tamoyillarini o'rganish, xorijda adabiyot, asosan, matn ustida ishlash orqali til o'rgatish, muloqotga kirishish, o'quv tahliliga assotsiativ-kontekstli yondashuv nuqtayi nazaridan A.Arikan, Y.Cevdet (Turkiya), C.J.Brumfit, R.A.Carter, M.N.Long, R.Walker, J.Collie, S.Slater, A.Maley, W.T.Littlewood (Buyuk Britaniya); A.Kelly, S.MsKay, P.Minkoff (AQSH); M.Khatip, A.H.Rahimi (Eron) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.



Tadqiqot usullari.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishda bolalar adabiyoti fanini o'qitishga doir mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish, ilmiy-metodik qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish; jarayonida kognitiv-pragmatik pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, intervyu, anketa-so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi usullardan foydalanilgan. "Bolalar adabiyoti" fani darsliklardagi o'quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, bolalar adabiyoti ta'limidagi muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish; oliy ta'lim tizimi boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida "Bolalar adabiyoti" fanidan foydalanishning bugungi holatini o'rganish va pragmatik mazmundagi mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarining adabiy ta'limdagi o'rnini belgilash; mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari tizimi asosida o'ziga xos mazmun va tuzilishga ega bo'lgan "Bolalar adabiyoti" darsligining yangi variantini yaratish; bolalar adabiyoti fani mazmunida bolalar adabiy ta'limini modernizatsiya qilish, savol, mashq va topshiriq hamda mustaqil ta'lim tushunchalari va ularning metodik vazifalarini tasniflash, ularni tubdan yangilash, mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq namunalarini ishlab chiqish; ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba orqali darsliklar mazmuni, bolalar adabiyoti dars mashg'ulotlarida sinab ko'rish va olingan xulosalarni umumlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va ularning muhokasmasi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti fani mazmunida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarining didaktik asosi ilmiy-nazariy tomondan takomillashtirildi, ya'ni bolalar adabiyotining badiiy asar mazmuni va muallif maqsadini anglash mustaqil ta'lim, savol va o'quv topshiriqning qanday berilishiga bog'liqligi, ularning o'zaro farqi, qo'llanilish o'rinlari, bolalar adabiyoti ta'limida tutgan o'rni va vazifalari aniqlandi, bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim, savol va topshiriqlar bilan bir qatorda mashqlardan o'quv faniga doir "ifodali o'qish", "obrazli o'qish", "ertak aytish", "she'rni ifodali aytish" kabi ijro ko'nikma va malaka hosil qilishda parallel foydalanish zarurligi isbotlangan; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti fanidan mustaqil ta'limning o'rni va ahamiyati, ijodkor maqsadigi, asar g'oyasini anglashda badiiy matn bilan ishlash uchun savol va o'quv topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda suhbatdoshga nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning bolalar adabiyoti fani uchun badiiy-uslubiy darajalari aniqlanib, didaktikada savol tuzishga pragmatik usulda yondashishning ilmiy-metodik afzalliklari dalillangan, o'quv jarayonini tashkil etishning shaxsiy-semantik tarkibiy qismlari, badiiy bilim va ko'nikmalarni spiralsimon tamoyil usulida qo'llash orqali takomillashtirilgan. bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari tizimi ishlab chiqildi va o'quv jarayonida sinovdan o'tkazildi, uch turdagi qidiruv topshiriqlari (matnlarni qayta tiklash va ularni keyingi tahlil qilish; takliflar asosida test tuzish; turli janrdagi matnlarni, grafik obektlarni keyinchalik matn, klaster, konseptual jadval, ularni taqqoslash, janrlarning xususiyatlarini, badiiy ifoda vositalarini aniqlash; yangi mahsulot yaratish uchun adabiy matnlarni o'zlashtirish zarurligiga asoslangan guruh loyiha topshiriqlari yaratilgan, o'quv jarayoni ishtirokchilarining bolalar adabiyoti ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirishning didaktik modeli bolalar adabiyotining aksialogik, kognitiv va faoliyat komponentlari asosida takomillashtirilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Bolalar adabiyoti" fanidan foydalanib, badiiy matn asosida o'qib tushunish ko'nikmasi bilan birga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish muammoli vaziyatga yechim topish, mulohaza, mushohada qilish malakasini ham baravar rivojlantirish lozimligini nazarda tutib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining to'g'ri va mantiqli javob berishga o'rgatish yo'llari, turlari va qo'llanadigan mediataxnologiyalar va interfaol metodlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti fani mazmunida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarining didaktik asosi ilmiy-nazariy tomondan takomillashtirildi, ya'ni badiiy asar mazmuni va muallif maqsadini anglash savol yoki o'quv topshiriqning qanday berilishiga bog'liqligi, ularning o'zaro farqi, qo'llanilish o'rinlari, bolalar adabiyoti ta'lim mazmunida tutgan o'rni va vazifalari aniqlandi, bolalar adabiyoti fani ta'lim mazmunida mustaqil ta'limning o'rni, o'quv topshiriqlar bilan bir qatorda mashqlardan



o'quv faniga doir "ifodali o'qish", "obrazli o'qish", "ertak aytish", "she'rni ifodali aytish" kabi ijro ko'nikma va malaka hosil qilishda parallel foydalanish zarurligi isbotlandi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti fani mazmunida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarining badabiy ta'limda ijodkor maqsadligi, asar g'oyasini anglashda badiiy matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda suhbatdoshga nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning adabiy ta'lim uchun badiiy-uslubiy darajalari aniqlanib, didaktikada savol tuzishga pragmatik usulda yondashishning ilmiy-metodik afzalliklari dalillandi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti fani mazmunida mustaqil ta'lim va adabiy o'qish uchun o'quv topshiriqlari tizimi ishlab chiqildi va o'quv jarayonida spiralsimon tamoyil metodi asosida sinovdan o'tkazildi, uch turdagi qidiruv topshiriqlari (matnlarni qayta tiklash va ularni keyingi tahlil qilish; takliflar asosida test tuzish; turli janrdagi matnlarni, grafik obektlarni keyinchalik matn, klaster, konseptual jadval, ularni taqqoslash, janrlarning xususiyatlarini, badiiy ifoda vositalarini aniqlash; yangi mahsulot yaratish uchun adabiy matnlarni o'zlashtirish zarurligiga asoslangan guruh loyiha topshiriqlari to'plami ishlab chiqildi. Bolalar adabiyoti ta'lim mazmunini o'ziga xos metodik xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar shoiri va yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutgan holda tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg'a intilishga chaqiradi, bu esa ularning hayotda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktik ohang ustun turadi.

O'zbek bolalar adabiyotining metodik taghlil etsak, salmoqli ijodkorlaridan biri Anvar Obidjon ijodida ushbu xususiyatlarning deyarli barchasini kuzatishimiz mumkin. U ko'plab asarlari bilan bolalar adabiyotining rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Anvar Obidjon she'rlari bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusidir. Uning asarlari o'zidek quvnoq, goh o'ychan, tili sodda va shirin, xalqchil. Qahramonlari aqlli, es-xushli, hazilkash bolalar. Shu tufayli shoir barcha bolalar diliga osongina yo'l topa oladi. Anvar Obidjon so'zlarni chertib-chertib, bolalarning yosh xususiyatlariga xos bo'lganlarini tanlaydi va o'z o'rnida ishlatadi. Bolalar dunyosi ajib bir olam, ajib bir go'zallik. Bolalar dunyosida rang-baranglik bor. Uni chizuvchi musavvir turfa ranglar bilan bu beg'uborlikni oq qog'ozga mayin tortar ekan, uning qalbi ham shu olam bilan hamohang bo'ladi. Bola bo'lib bolalar dunyosiga sayr qiladi. Anvar Obidjon she'rlari ham bolalarning o'zgacha dunyosini his qilib, uni turfa ranglar bilan qog'ozga jo qilgan musavvir singari bitilgan. Uning birgina "Go'dak yig'isi" nomli she'rini o'qir ekanmiz bunga amin bo'lamiz. Bu she'rda o'z narsalarini xonadoniga kelgan mehmon boladan qizg'anib injiqlik qilayotgan bolakay holati tasvirlanadi. Bolalar beg'ubor, ularning injiqlik qilib, xarhasha qilishlari, yig'lashlari ham ajib bir olamdir.

Ko'p suqlama lolamga,
Yaqinlashma holvamga
Qo'l uzatma olmamga
U meniki, ber menga!

Bolaning bunday ajib injiqligini tasvirlovchi shoir, shubhasiz, o'zi ham bola bo'lib, bola ruhiyatiga kiradi. Aslida, o'zbek xalqi bolajon xalq. Shu bilan birga o'zining mehmondo'stligi, samimiy, ko'ngli ochiqligi bilan ham boshqa xalqlardan ajralib turadi. Hech bir xonadon yo'qki, eshigini taqillatib kelguvchi mehmoni bo'lmasa. O'zbek xalqining xonadoniga kim kelishidan qat'iy nazar doimo eshigi ochiq, qo'li ko'ksida. Xonadoniga kelgan har bir insonni ochiq chehra, shirin tabassum bilan kutib oladi. Mehmonlar bilan tashrif buyurgan bolajonlar esa, xonadon egalarining farzandlari bilan do'stlashishadi, ular bilan birga o'ynashadi. Bolajonlar do'stlashib, bir-birlari bilan chiqishib ketishguncha, albatta, vaqt o'tadi. She'rda uyiga mehmon bo'lib kelgan boladan o'zining narsalarini qizg'anayotgan mezbon bola o'rtasidagi munosabat haqida so'z boradi. Mezbon bola unga hech narsasini ushlatgisi kelmaydi, hatto hovlida o'sayotgan chiroyli lolalarga ham ko'zi tushmasligini, bu go'zallikni tomosha qilmasligini, uning hidlaridan bahramand bo'lmasligini xohlaydi. Yosh bola uchun butun bir olam, borliq, hamma-hamma narsa o'zinikiday, faqat ungagina tegishliday tuyiladi. Shu sabab xonadoniga kelgan mehmon bolakayni o'zining olamiga kiritishni istamaydi. "U meniki, ber menga!" degan so'zlarida mezbon bolalarning ana shunday ruhiyati tasvir etiladi. Bolalarning bunday ajib bir olamini his qilish uchun inson bolalarcha sof qalb, sof tuyg'ular egasi bo'lmog'i lozim. Anvar Obidjon man shu dunyoni ko'ra olgan, shu olamda yashay olgan shoirdir:



Bolishchamga qo'yma bosh,
Paykalimga yig'ma mosh,
Qirlarimdan terma tosh,
U meniki, ber menga!

Shoir bolaning bunday o'ziga xos, sirli olamini shunday go'zal tuyg'ular bilan yo'g'rilgan so'zlar asosida maromiga yetkazib tasvirlaganki, uni o'qigan kattalar ham o'z bolaligiga qaytgandek, bu olamda sayr etgandek bo'ladi. Bola xayolida mehmon bolakay unga tegishli va qadrli bo'lgan barcha narsasini xuddi o'zi bilan olib ketayotganday tasavvur qiladi va jahli chiqqanidan yig'lab yuboradi. Anvar Obidjon bolaning ushbu holatini tasvirlashda, bir ajib olamga cho'mgan musavvir misol turfa ranglarni maromida ishlatadi. Bolaning bu sirli olamida faqat ungagina tegishli bo'lgan ulkan bir manzili, yani Vatani bor. Bu diyordagi paykallar, qirlar, tog'-u toshlar uniki. O'zining bu diyoridan hech kimga hech narsasini bergisi kelmaydi. Paykallaridan mosh yig'ishga, hatto qirlaridan tosh terishga yo'l qo'ymaydi. Dadil turib, biyron tillari bilan "U meniki, ber menga!" deya o'zining diyoriga, o'zi yaratgan, sof qalbi, tasavvuri bilan ko'ra olgan Vataniga bo'lgan muhabbati aks etadi. Chunki, uning uchun bu olamidagi har bir narsa, hatto qirlaridagi shu mayda toshlar ham qadrli.

Bolalarning tasavvur olami shunchalar g'aroyibki, ular qurib yotgan cho'llar, sahrolardan ham bog' yarata olishadi. Shoir Anvar Obidjon "Moy qidirma cho'limdan "so'z zanjiriga shunday jilo berganki, bunda bolalarning yaratuvchilik qobiliyati, cho'l, sahro, yerlarni o'zlashtirib, ezgulik yo'lida o'zgacha bir olam barpo etish qobiliyatga ega ekanligi o'z ifodasini topadi. Bolajonning mehmon bolakayga qarata aytgan bunday so'zlarida esa, hatto cho'llarini ham berib qo'ymasligini nazarda tutadi. Bolakayning sirli olami go'zallik, go'yo turfa bo'yoqlar tortilgan serjilo maskandir. U o'z maskanida sayr qiladi, o'zining muattar hidini taratayotgan lolalar, turfa gullar hididan mast bo'ladi, ko'llaridan baliq tutadi. Uning ko'llarida baliqlari turli-tuman. U o'z baliqlarini bahorda, yozda ozuqa bilan boqadi, go'yoki ularga g'amxo'rlik qiladi, tasavvurida ular bilan suhbat qurgandek bo'ladi. U mehmon bolakayga baliqlarini xafa qildirib qo'ymaydi. Uni eshituvchi, go'yoki u bilan pinhona suhbat quruvchi ko'ldagi bu baliqlar uning do'stlari. U do'stlarini mehmon bolakayga xafa qildirib qo'yishni istamaydi. Bolalar tasavvuri cheksiz. Ularning xayolot mahsuli bo'lmish ajib bir diyordagi o'zgacha. O'g'il bolalar yoshligidan askar bo'lishni, vatanini yomon ko'zlardan asrovchi vatan posboni bo'lishni orzu qilishadi. Mehmon bolakaydan o'zining narsalarini qizg'anayotgan shu jajji bolajonning xayolotidagi sirli olami uning uchun qadrli, o'sha sirli diyori uning uyi, uning vatani. U uchun bu olamdagi, bu manzildagi har bir narsa, uning bir siqim tuprog'i ham qadrli. Uning uyiga kelgan mehmon bolakayni esa u o'z olamiga, vataniga qo'ygisi kelmaydi. Uning vataniga bo'lgan bu qadar kuchli muhabbati esa onasining qaynoq mehri, oq suti va ona allasi bilan jo bo'lgan. Vataniga bo'lgan fidokorlik, cheksiz muhabbat, mardlik, jasurlik, o'zbek o'g'lonlariga xos mustahkam iroda esa, shubhasiz, buyuk ajdodlaridan o'tgan merosdir. Anvar Obidjonning qalbi bola misoli beg'uborlikka to'la. U go'dak qalbini to'ldirib turgan beg'ubor hislarni, tuyg'ularni, sho'xliklarga, ajibliklarga to'la sirli olamni ko'ra oladi. Bu ajib diyorga kirib, mayin kuydek taralayotgan beg'ubor qalb sadolarini tinglay oladi. Kitobxon uning she'rlarini o'qiganda beixtiyor bu sirli olam eshigidan mo'ralagandek tuyuladi. Anvar Obidjonning yana bir "Kasal bola" she'rida to'shakda yotgan bolaning ichki kechinmalari, o'zi bir ahvoldaligiga qaramasdan, onasiga dalda berayotgani tasvirlanadi.

Oyijonim, yig'lamang,
Hali yoshman, o'lmayman,
Asta turib olsam bas,
Bosha kasal bo'lmayman,
Oyijonim, yig'lamang.

Kichik jussada, katta yurak. Bu kichik jussaning dard bilan kurashishi, uning hayotga bo'lgan ishtiyoqi beixtiyor insonning ko'zlariga yosh keltiradi. Bolakay to'shakda dard bilan olishmoqda. Ona uchun bundan ortiq azob bo'lmaydi. Jigarbandi, yuragining bir parchasiga bir gap bo'lmasin, deb doimo, har nafasida qo'rquvda. Har nafasida qo'llarini duoga ochib Allohndan jigargo'shasi uchun umr so'raydi. Qani edi, imkoni



bolsa, bolasi uchun o'z umrini ham bergan bo'lardi. Ona mana shunday o'z jigarbandi, yuragining bir parchasi bo'lmish bolasi uchun hatto jonini ham berishga tayyor buyuk va ulug' zotdir. Ammo u azobda qolgan, kichik jussasida og'ir dard bilan olishayotgan jigarbandiga ko'zyoshlarini ko'rsatgisi kelmaydi. Shunday og'ir damda ham kuchli bo'lishga, farzandining yonida tog'dek turishga harakat qiladi. Ammo dard bilan olishayotga bu jajji bolajon oyijonisining azoblanayotganini his qiladi. Oyisini yupatishga, "Oyijinim, yig'lamang" deb ayta olishga o'zida kuch topa oladi. Oyisining boshqa yig'lamasligi uchun "asta turib olsam bas, boshqa kasal bo'lmayman" deb yupatadi. Onaizor esa bolasi uchun doimo duoda. Jajji bolajon asta turib olsa, boshqa kasal bo'lmasligiga ishonadi.

Qilmading deb nonushta
Xafa bo'lmang unchalik.
Bu kech yedim tushimda
Sutdek o-oppoq kulchani
Oyijonim, yig'lamang.

Oyisining har kuni ko'zyosh to'kishlarini ko'rgan go'dak, onasini yupatishga urinadi, albatta, oyoqqa turib ketishiga ishonishini aytadi. Dard bilan olishayotgan bolasining ovqat yemay qo'yganini ko'rgan ona azoblanadi. Farzandi ovqat yemas ekan, onaizor ham aslo tuz totmaydi. Ona farzandi uchun doimo shirin-shakar taomlar pishiradi. Onaning qo'li bilan tayyorlangan har qanday taom lazzatli bo'ladi. Chunki onalar bolalari uchun tayyorlayotgan taomlariga cheksiz mehr-muhabbat qo'shib tayyorlashadi. Onaizor chuqur xayolga cho'mib, bolasi uchun har tong mehr bilan nonushta tayyorlashini, u tayyorlagan sutdek oppoq kulchalarni farzandi, jigargo'shasi juda sevib yeyishini eslab ko'zlariga yosh oladi. Onaizor farzandining bunday og'ir azoblarga qolganini ko'rib yurak-bag'ri ezilib ketadi. Farzandi ovqat yemasa qanday kuch to'playdi, qanday tuzaladi. Farzandi ovqat yemas ekan, onaning tomog'idan qanday qilib ovqat o'tadi. Ona uchun shu damda olayotgan har bir nafasida cheksiz azoblanish, iztirob mavjud. Qani endi, o'sha baxtli kunlar ortga qaytsa, qani edi, farzandi oldingidek o'ynab-kulib yursa, yugurib kelib biyron tillari bilan oyijonisidan yoqtirgan kulchalarini pishirib berishini so'rasa, ona farzandi uchun mehr bilan turfa taomlar pishirsa, farzandining ko'zlaridagi quvonchni ko'rib cheksiz baxtni tanasida his qilsa, Allohim bu dardni bolasiga, jigarbandiga emas, unga bersa. Onasining ko'zyosh to'kayotganini ko'rgan bola, o'zining tuzalayotganini, tuzalishiga sof go'dak qalbi bilan chin dildan ishonayotganini, onasining boshqa hech qachon yig'lamasligini chin dilidan xohlaydi. Dorilar ichvoldim, bo'ldim yana "zo'r polvon". Dorilarni ichib onasini xursand qilgisi kelgan murg'ak go'dak, oldingidek o'zini avvalgidek tetik his etadi. Oyisini yupatishga harakat qilgan bolajon aldamayotganini aytadi. Shoir bola holatini shu qadar tasvirlaganki, she'rni o'qigan har bir kitobxon ko'z oldida, bolaning qiyofasi beixtiyor gavdalanadi, uning dardini ich-ichidan his qiladi. Tuzalishga astoydil intilayotgan bola tuzalغانidan so'ng onaisga shaharga borishini, ularni tashlab ketgan dadasi ham ular bilan yarashgani kelishiga ishonadi. Bola ko'ngli misoli oq qog'oz. U ota-onasi bag'rida, xursandchilikda yashashni xohlaydi. Hatto to'shakda dard bilan olishayotgan paytda ham, dadasini kelishiga ishonadi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti fani mazmunida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini bolar adabiyoti fani ta'lim mazmunidan foydalanib, badiiy matn asosida o'qib tushunish ko'nikmasi bilan birga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muammoli vaziyatga yechim topish, mulohaza, mushohada qilish malakasini ham baravar rivojlantirish lozimligini nazarda tutib, o'quvchini to'g'ri va mantiqli javob berishga o'rgatish yo'llari, turlari va qo'llanadigan mediateknologik yondashuvlar bo'yicha tavsiyalar taklif qilindi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining badiiy matn ustida ishlashga mo'ljallangan o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi mantiqan izchil fikrlay olish, badiiy matnni o'qib tushuna olish hamda asar haqida o'z munosabatini to'g'ri va mazmunli mushohada qila olish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qiluvchi savol va topshiriqlar adabiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirilmoqda. O'zbek bolalar adabiyotining metodik rivojlantirishda Anvar Obidjonning o'z o'rni va o'z uslubi bor. Ma'naviyat va ma'rifat masalalariga davlat miqyosida e'tibor kuchaygan bugungi kunda, Anvar Obidjonning ibratli hayoti va boy ijodidan, unda



ko'tarilgan g'oyalardan saboq, ibrat olish ham yuksak ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Anvar Obidjonning ijtimoiy xarakterdagi she'rlari bolalarni ona-Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat, adolatga intilish, insonlarga yaxshilik qilish ruhida tarbiyalashdek muhim vazifalarni metodik amalga oshishda katta ta'sir kuchiga ega.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. uza.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019 yil 21 oktyabr.
2. Anvar Obidjon. She'rlar va hikoyalar. –Toshkent: "Sharq", 2006. – 57-b.
3. M. Jumaboev "Bolalar adabiyoti" (O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T.: 2013) darslik.
4. Turkiy Guliston yoxud axloq. A. Avloniy. Latif Xalilov. www.ziyouz.com. kutubxonasi.
5. O'zbek bolalar adabiyoti. Antalogiyasi. Ikki jildlik. She'riyat. Tuzuvchi va nashrga tayorlovchilar. T. Adashboyev. A.Akbar. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi T.: 2006. 279 bet.
6. G.R.Raximova. Boshlang'ich ta'limda didaktik asarlar orqali kitobxonlikni shakllantirish. O'quv qo'llanma.S.2024 y. 236 bet.
7. Raximova G.K. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. S.: 2022. – 308 b.,
8. Matchonov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1998. – 308 b.;
9. Matjonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? –T.: O'qituvchi nashriyoti, 1993. – 144 b. Elektron.
10. Turdiyeva Bolalar adabiyoti.darslik T.: 2010 yil.
11. Yo'ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1997. – 306 b.;
12. Mirqosimova M.M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1995. – 253 b.;
13. Husanboeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2006. – 34-b. – 262 b.;
14. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlarida misolida). Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 242 b.